

## TALABALARGA RANGTASVIR MASHG'ULOTLARINI O'RGATISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

**Sobitova Oydinxon Obitjon qizi**

*Andijon davlat pedagogika insitituti tasviriy san'at yo'nalishi magistranti*

*E-mail: [sobitovaoydinxon@gmail.com](mailto:sobitovaoydinxon@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada talabalarga rangtasvir mashg'ulotlarini o'rgatishning zamonaviy yondashuvlari, ularning nazariy metodik asoslari hamda oliy ta'lim tizimida qo'llanilish imkoniyatlari tadqiq etiladi. Bugungi globalashuv va raqamlashtirish sharoitida tasviriy san'at ta'limi oldiga yangi vazifalar qoyilmoqda. Bo'lajak tasviriy san'at pedagoglari va rassomlarining kaspiy kompetensiyalarini shakillantirishda rangtasvir mashg'ulotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida kompetensiyaviy yondoshuv, interfaol ta'lim texnologiyalari, STEAM ta'limi, loyiha metodi hamda raqamli vositalardan foydalanishning afzalliklari tahlil qilinadi. Natija shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogic texnologiyalar asosida tashkil etilgan rangtasvir mashg'ulotlari, talabalarnin g ijodiy faolligini, mustaqil fikrlashi va kasbiy tayyorgarligini sezilarli darajada rivojlantiradi.

**Kalit so'zlar:** rangtasvir, tasviriy san'at ta'limi, zamonaviy yondashuvlar, kompetensiyaviy yondashuv, STEAM, pedagogik texnologiyalar, ijodiy kompetensiyaviy, portfolio, master-klass.

## СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ СТУДЕНТОВ ЖИВОПИСИ

**Собитова Ойдинхон Обитжон Кызы**

*Магистрант направления «Изобразительное искусство» Андижанского государственного педагогического института*

*e-mail: [sobitovaoydinxon@gmail.com](mailto:sobitovaoydinxon@gmail.com)*

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются современные подходы к обучению студентов живописи, их теоретические и методологические основы, а также возможности их применения в системе высшего образования. В современных условиях глобализации и цифровизации перед художественным образованием ставятся новые задачи. Занятия живописью играют важную роль в формировании творческих компетенций будущих преподавателей и художников изобразительных искусств. В исследовании анализируются преимущества компетентностного подхода, интерактивных образовательных технологий, STEAM-образования, проектных методов и использования цифровых инструментов. Результаты показывают, что занятия живописью, организованные на основе современных педагогических технологий, значительно развивают творческую активность студентов, их самостоятельное мышление и профессиональную готовность.

**Ключевые слова:** живопись, художественное образование, современные подходы, компетентностный подход, STEAM, педагогические технологии, творческая компетентность, портфолио, мастер-класс.

## MODERN APPROACHES TO TEACHING STUDENTS IN PAINTINGS

**Sobitova Oydinkhan Obitjon's Daughter**

*Master's student in Fine Arts Andijan State Pedagogical Institute*

*e-mail: sobitovaoydinxon@gmail.com*

**Abstract:** *This article examines modern approaches to teaching students painting, their theoretical and methodological foundations, and the possibilities of their application in the higher education system. In today's conditions of globalization and digitalization, new tasks are being set for fine arts education. Painting classes play an important role in the formation of the creative competencies of future fine arts teachers and artists. The study analyzes the advantages of the competency-based approach, interactive educational technologies, STEAM education, project methods, and the use of digital tools. The results show that painting classes organized on the basis of modern pedagogical technologies significantly develop students' creative activity, independent thinking, and professional readiness.*

**Keywords:** *painting, fine arts education, modern approaches, competency-based approach, STEAM, pedagogical technologies, creative competency, portfolio, master class.*

### KIRISH.

Tasviriy san'at ta'limning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tasviriy san'atning eng muhim yo'nalishlaridan biri rangtasvir bo'lib, o'quvchilar badiiy tafakkuri va kuzatuvchanligini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ham ta'lim sohasida san'atning o'rnini yuqori ekanligi ayniqsa Tasviriy san'atning muhim o'rin kasb etishini ko'p takidlaydilar. "O'zbekiston tasviriy va amaliy san'atini yanada rivojlantirish va jahon miqiyosida ommala shtirish, iste'dotli yosh rassomlarni qo'llab-quvvatlash, badiiy ta'lim sohasida yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, hamda yangi zamonaviy texnologiyalarni qo'llagan holda kreativ loyihalarni amalga oshirish maqsadida qaror qilaman"<sup>1</sup>, deya Prezidentimiz tasviriy va amaliy san'at sohasiga yanada yoshlarni, balki butun O'zbekistonni e'tiborini kuchatirdilar.

Hozirgi globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uning mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish hamda bo'lajak mutaxasislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa,

<sup>1</sup> O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yil 1-iyuldagi PQ-212-son qarori.

tasviriy san'at va badiiy ta'lim yo'nalishlarida o'qitish jarayonini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega<sup>2</sup>.

Rangtasvir tasviriy san'atning asosiy yo'nalishlaridan bo'lib, u borliqni rang, yorug'lik va kompozitsiya orqali badiiy ifodalash imkonini beradi. Rangtasvir mashg'ulotlari talabalarda estetik did, kuzatuvchanlik va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim ro'l o'ynaydi. Shu sababli ushbu fan bo'yicha o'quv jarayonini zamonaviy metodlar asosida tashkil etish shart<sup>3</sup>.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi san'at ta'limi jarayoniga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Elektron resurslar va multimedia vositalari orqali talabalar jahon san'ati namunalari bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'lmoqdalar.

### **ADABYOTLAR TAHLILI:**

Rangtasvirni o'qitish metodikasi va tasviriy san'at ta'limi masalalari ko'plab mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlarga asosan talabalarning ijodiy kompetensiyalarini rivojlantirish, badiiy tafakkurini shakllantirish va o'qitish jarayonini modernizatsiya qilish masalalari yoritilgan. A.Amanulayevning "Akademik rangtasvir" darsligida rangtasvirning asosiy qonuniyatlari, kompozitsiya, perspektiva va ranglar nazariyasi barafsil yoritilgan. Muallifning fikricha, rangtasvirning o'rganish jarayoni bosqichma-bosqich, nazariy ilim va amaliy mashg'ulotlar uyg'unligida tashkil etilishi lozim<sup>4</sup>. Bu yondashuv talabalarda badiiy savodxonlikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Namangan davlat universiteti olimlarining ilmiy ishlarida tasviriy san'at ta'limini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish masalalari keng o'rganilgan. Xususan M.Umataliyev tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda talabalarda mustaqil ijodiy fikrlashni rivojlantirish uchun loyiha va muammoli ta'lim metodlaridan foydalanish samarali ekanligi takidlanadi<sup>5</sup>.

Shuningdek, rangtasvir mashg'ulotlarida master-klass metodining qo'llanilishi ham samarali yondashuv sifatida qayd etiladi. Bu metod talabalarga tajribali rassomlar ish uslublarini brvosita kuzatish, amaliy ko'nikmalarni tezroq egallash hamda o'z ijodlarida ushbu bilimlardan samarali foydalanishga imkon beradi. B.Nabiyev tadqiqotlarida etyud va naturadan ishlash jarayonining talabalarning badiiy tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritilgan. Muallifning fikricha, muntazam etyud ishlash talabaning kuzatuvchanligini oshiradi va rang munosabatlarini to'g'ri idrok etishga yordam beradi<sup>6</sup>.

Xorijiy tadqiqotlarda ham san'at ta'limida kompetensiyaviy yondashuv, STEAM ta'limi va raqamli texnologiyalardan foydalanish keng qo'llanilib kelinmoqda. Bu uslubdagi yondashuvlar talabalardagi ijodiy fikrlashni rivojlantirish bilan bir qatorda, ularni zamonaviy kasbiy faoliyatga tayyorlash uchun ham muhim o'rin egallaydi. Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko'rsatadiki, rangtasvir mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun . 2020.

<sup>3</sup> Amanullayev A. Akademik rangtasvir. Namangan 2023.

<sup>4</sup> Amanullayev A. Akademik rangtasvir. Namangan 2023.

<sup>5</sup> Umataliyev M.A Tasviriy san'at ta'limida kompetensiyaviy yondashuv. 2023.

<sup>6</sup> Nabiyev.B.A. Etyudlar orqali badiiy tafakkurni rivojlantirish. 2025.

texnologiyalar asosida tashkil etish talabalarning ijodiy faolligini oshiradi, mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi va kasbiy tayyorgarligini mustahlashga hizmat qiladi.

### **TADQIQOT METODLARI:**

Mazkur taqiqota talabalarga rangtasvir mashg'ulotlarini o'rgatishning zamonaviy yonashuvlarini o'rganish va ularning samaraorligini aniqlash maqsadida bir qator ilmiy-metodik usullardan foydalanildi. Taqiqot jarayonida nazariy empirik hamda qiyosiy tahlil metodlari sosiy o'rinni egalladi.

Tadqiqotning nazariy asosini tasviriy san'at pedagogikasi, rangtasvir metodikasi hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha ilmiy manbalar tashkil etadi. Ushbu manbalar orqali rangtasvir ta'liming mazmuni, o'qitish shakllari va metodlari tahlil qilinadi<sup>7</sup>.

Empirik tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatish metodi qo'llaniladi. Rangtasvir mashg'ulotlari davomida talabalar faoliyati, ularning ijodiy yondashuvi, mustaqil ishlash darajasi hamda amaliy vazifalarni bajarish sifati kuzatish mumkin. Bu jarayon zamonaviy yondashuvlarning maliy samaradorligini aniqlashga yordam beradi.

Shuningdek, suhbat va so'rovnoma metodlari orqali talabalarning rangtasvir mashg'ulotlariga bo'lgan qiziqishi, interfaol metodlarga munosabati hamda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha fikrlari o'rganiladi. Olingan natijalar ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini ko'rsatdi.

Qiyosiy tahlil metodi orqali an'anaviy va zamonaviy rangtasvir o'qitish usullarini solishtirishimiz mumkin. An'anaviy yondashuvda asosiy e'tibor akademik qoidalarga qaratilgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda talabaning ijodiy faoliyati va mustaqil fikrlashi ustuvor ahamiyatga egaligini ko'ramiz<sup>8</sup>.

Tadqiqot jarayonida quyidagi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari o'rganildi:

- interfaol metodlar (aqliy hujum, klister, FSMU);
- loyiha asosida o'qitish;
- portfolio texnologiyasi;
- master-klass mashg'ulotalari;
- STEAM yondashuvi;
- raqamli ta'lim vositalari.

Mazkur metodlar asosida tashkil qilingan mashg'ulotlar talabalarning ijodiy faolligini oshirish, rangtasvir bo'yicha amaliy ko'nikmalarini rivojlantirish hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qilganini ko'rishimiz mumkin<sup>9</sup>.

Tadqiqot davomida olingan natijalar statistik tahlil qilinmadi, balki sifat jihatidan umumlashtirish va pedagogik tahlil qilish asosida baholashdan foydalanildi. Bu yondashuv rangtasvir ta'limida ijodiy jarayonlarni chuqurroq tushunishga imkon beradi. Umuman

<sup>7</sup> Amanullayev A. Akademik rangtasvir. Namangan 2023.

<sup>8</sup> Olipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. 2018

<sup>9</sup> Umataliyev M.A. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodlari. 2023.

olganda, tadqiqot metodikasi zamonaviy pedagogic yondashuvlarni rangtasvir mashg'ulotlariga tatbiq etish samaradorligini aniqlashga qaratildi.

#### **TAHLIL VA NATIJALAR:**

Tadqiqot jarayonida rangtasvir mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish talabalarning ijodiy faoliyati va kasbiy kompetensiyalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ko'ramiz. O'quv jarayonida interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, portfolio texnologiyasi hamda raqamli vositalardan foydalanish natijasida talabalarning faolligi sezilarli darajada oshadi. Kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy darslarda talabalar ko'proq tayyor namunalarni takrorlash bilan cheklanayotgan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlar qo'llanilgan mashg'ulotlarda mustaqil qaror qabul qilishg intilganini ko'rishimiz mumkin. Bu holat ularning badiiy tafakkuri va ijodiy mustaqilligini rivojlantirishga hizmat qiladi<sup>10</sup>.

Interfaol metodlardan foydalanish xususan "aqliy hujum" va "klister" usullari rangtasvir mavzularini tahlil qilish va g'oyalar ishlab chiqishda samarali vosita hisoblanadi. Talabalar muayyan kompozitsion yechimlarni topishda qiynalmaydilar va o'z fikrlarini erkin bayot eta oladilar.

Loyiha asosida o'qitish metodida talabalar berilgan mavzu bo'yicha mustaqil ish yaratadilar.

Portfolio texnologiyasining qo'llanilishi talabalarni ijodiy rvojlanishini tizimli kuzatishni imkonini beradi.har bir talabaning ish jamlammasi asosida ularning o'sish dinamikasi, rang bilan ishlash darajasi va kompozitsion savodxonlihi tahlil qilinadi.

Shuningdek raqamli texnologiyalardan foydalanish mashg'ulotlarni samaradorligini oshiradi. Elektron resurslar, virtual muzeylar va raqamli ilovalar orqali dunyo rassomlarning asarlari bilan tanishish, ularning uslub va texnikalarini organish imkoni paydo boladi<sup>11</sup>.

STEAM yondashuvi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar esa rangtasvirni boshqa fanlar bilan integratsiyalash imkonini beradi. Natijada talabalar rang, shakl va kompozitsiyani nafaqat badiiy, balki ilmiy jihatdan ham tahlil qilishga o'rganadilar.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etilgan rangtasvir mashg'ulotlarida:- mustaqil fikrlash qobilyati, rang bilan ishlash ko'nikmalari rivojlandi. Umuman olganda, olingan natijalar rangtasvir ta'limda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning smaradorligini tasdiqlaydi va ularni keng miqyosda joriy etish kerak ekanligini ko'rsatadi.

#### **XULOSA**

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarga rangtasvir mashg'ulotlarini zamonaviy yondashuvlar asosida o'rgatish ta'lim jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Interfaol metodlar, loyiha asosida o'qitish, portfolio texnologiyasi, va raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish talabalarning ijodiy faolligini kuchaytiradi va ularni mustaqil fikrlash qobilyatini rivojlantiradi.

<sup>10</sup> Tolipov O'. Usmonov M. Pedagogik texnologiyalar. 2018.

<sup>11</sup> Nabiyev. B.A. Tasviriy san'at ta'limida raqamli yondashuvlar.2025.

Zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar talabalarda nafaqat amaliy ko'nikmalarni, balki tahliliy fikrlash, ijodiy yondashuv va badiiy qaror qabul qilish kompetensiyalarini ham shakllantiradi. Bu esa bo'lajak tasviriy san'at o'qtuvchilari va rassomlarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga hizmat qiladi.

Shuningdek tadqiqot davomida raqamli texnologiyalar va STEAM yondashuvining rangtasvir ta'limidagi o'rni muhim ekanligi ham aniqlandi. Ushbu yondashuvlar talabalarning san'atga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda ularni zamonaviy kasb faoliyatiga tayyorlashda muhim omil bo'lib hizmat qiladi. Umuman olganda, rangtasvir mashg'ulotlarini zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida tashkil etish ta'lim sifatini oshirish, talabalarning ijodiy salohiyatini rivojlantirish va ularni raqobatdosh mutaxassis sifatida tayorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

### FOYDALANILGANILGAN ADABYOTLAR

1. O'zbekiston respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2025-yil 1-iyuldagi PQ-212-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun . 2020.
3. Amanullayev A. Akademik rangtasvir. Namangan 2023.
4. Umataliyev M.A Tasviriy san'at ta'limida kompetensiyaviy yondashuv. 2023.
5. Nabiyev.B.A. Etyudlar orqali badiiy tafakkurni rivojlantirish. 2025.
6. Olipov O', Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. 2018
7. Umataliyev M.A. Kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish metodlari. 2023.
8. Tolipov O'. Usmonov M. Pedagogik texnologiyalar. 2018.
9. Nabiyev. B.A. Tasviriy san'at ta'limida raqamli yondashuvlar.2025.